

**Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filial talabalari o'rtasida
Qisqa metrajli targ'ibot roliklari uchun tanlovini o'tkazish tashkiliy guruh
yig'ilishi**

B A Y O N N O M A S I

2025-yil 24-aprel

Samarqand sh.

Raislik qiluvchi: X.Turdibekov, filial direktor o'rinbosari.

A'zolar: O'.Xudayarov, A.Axmedov, M.Xolmatov, L.Eshonqulov, B.Quziboyev

Kotib: T.Yuldashev

KUN TARTIBI:

1. Qisqa metrajli targ'ibot roliklari uchun tanlovi bo'yicha filial talabalari o'rtasida o'tkazilgan tanlov natijalari haqida.

Eshitildi: X.Turdibekovning axboroti.

- Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy saytlarida talabalarni vatanga bo'lgan muhabbatini yanada oshirish maqsadida talabalar o'rtasida Qisqa metrajli targ'ibot roliklari uchun tanlovini o'tkazilishi haqida e'lonlar joylashtirildi. Tayyorlanadigan videoroliklar "Jaholatga qarshi ma'rifat", "Ekstremizm va terrorizm nima?", "Jinoyat bu..." kabi dolzarb mavzularda qisqa metrajli targ'ibot videoroliklar tayyorlash va namoyish etish belgilandi. Shuningdek ishtirok etishni istagan talabalar tomonidan Talaba va o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi tomonidan namunaviy ssenariylar asosida tayyorlangan eng yaxshi videoroliklar 2025-yil 23-aprel kuniga qadar 31 ta videoroliklar ishchi guruh a'zolariga topshirilgan.

Tashkiliy guruh a'zolarining baholariga ko'ra umumiy baholash natijalari aniqlandi va guruh a'zolariga tanishtirildi.

Shundan so'ng, berilgan ma'lumotlar asosida Tashkiliy guruh a'zolari o'z munosabatlarini bildirishib o'tdi. Muhokama natijalariga ko'ra g'olib va sovrindorlar aniqlandi:

1-o'rinni "Koordinatorlar" jamoasi guruhi 88 ball;

2-o'rinni "Valantyorlar" jamoasi guruhi 86 ball.

3-o'rinni Raqamli iqtisodiyot ta'lim yunalishi RI-223 guruhi talabasi Rustamova Barchinoy Asliddin qizi 84 ball.

**Yuqoridagilardan kelib-chiqib, Tashkiliy guruh tomonidan Qisqa metrajli
targ'ibot roliklari uchun eng yaxshi videoroliklar tanlovini g'oliblarini aniqlash
bo'yicha**

QAROR QILADI:

1. Quyidagi talabalar Qisqa metrajli targ'ibot roliklari uchun eng yaxshi videorolik tanlovi bo'yicha talabalar o'rtasida o'tkazilgan tanlov g'olibi deb topilsin:

1-o'rinni "Koordinatorlar" jamoasi guruhi 88 ball;

2-o'rinni "Valantyorlar" jamoasi guruhi 86 ball.

3-o'rinni Raqamli iqtisodiyot ta'lim yunalishi RI-223 guruhi talabasi Rustamova Barchinoy Asliddin qizi 84 ball.

2. Tanlov natijalari ishtirokchilarga yetkazilsin (Mas'ul: Fakultet yoshlar masalalari bo'yicha dekan o'rinbosarlari L.Eshonqulov, B.Qo'ziboyev).

3. Tanlov g'oliblari filial ichki imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda Nizom talabalari asosida rag'batlantirilsin.

4. Tanlov g'oliblarini taqdirlash filial talabalar ishtirokida tantanali ravishda amalga oshirilsin.

5. Tanlovda 1-o'rinni qo'lga kiritgan "Koordinatorlar" jamoasi guruhi tomonidan tayyorlangan videorolik tanlovning Respublika bosqichida ishtirok etish uchun tavsiya etilsin va tayyorlangan videorolik ishchi guruhga taqdim etilsin.

Tashkiliy guruh raisi



X.I.Turdibekov

Kotibi

T.A.Yuldashev